JAMIYAT SOTSIAL STRATIFIKATSIYASINI O‘RGANISHDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING O‘RNI

Xudoyberdiyeva Anorabonu Hayotovna
Ichki ishlar Akademiyasi “Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Bugungi kunda dunyodagi barcha millat va elatlarning asosiy maqsadi – tinch-totuv yashab, farovon hayot kechirishdir. Millatlararo hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik tamoyillari esa mana shu orzularni ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy stratifikatsiya va millatlararo hamjihatlik g‘oyalari mohiyati, mazmuni va shakli tubdan o‘zgardi. Mazkur maqolada mamlakatimizda ijtimoiy stratifikatsiyaning mohiyati va uni o‘rganishning ahamiyatini tahlil qilish orqali yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy tarbiyasiga bo‘lgan ta’sirni ijtimoiy gumanitar fanlar oldida turgan vazifalardan biri ekanligini tahlil qilib beradi.

Kalit so‘zlar: Demokratiya, insonparvarlik, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy stratifikatsiya, millatlararo hamjihatlik, qatlam, sinf, shaxs.

Hozirgi ijtimoiy–iqtisodiy davr xususiyatlari, bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida, dunyodagi barcha millat va elatlarning asosiy maqsadi – tinch-totuv yashab, farovon hayot kechirishdir. Millatlararo hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik tamoyillari esa mana shu orzularni ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy hamkorlik va millatlararo hamjihatlik g‘oyalari mohiyati, mazmuni va shakli tubdan o‘zgardi.Chunki bu sharoit millatlar, elatlar, ijtimoiy guruh va davlatlar munosabatlarida tadbirkorlik, ishlab chiqarish munosabatlari, xalqaro huquq, demokratiya va insonparvarlik qoidalariga rioya qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Har bir millatning taraqqiy etishi jamiyatimiz uchun nihoyatda katta yutuq bag‘ishlaydi, iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi, chuqur va samimiy o‘zaro hurmat paydo qiladi, xalqlar do‘stligini mustahkamlaydi. Millatlarning bir-biriga yaqinlashuvi orqasida har bir millat gullab yashnaydi, har bir millat gullab yashnashi orqasida xalqlar bir-biriga yaqinlashadi – globallashuv sharoitida ijtimoiy hamkorlik taraqqiyoti dialektikasi ana shunday tartibda rivojlanadi. Insoniyat tabiiy muvozanat buzilishi holatidan faqatgina har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy va boshqa manfaatlarini keyinga surib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida jipslashish, zudlik bilan ta’sirli choralar qo‘llash orqaligina qutulishi mumkin.

Ijtimoiy stratifikatsiya ham mana shunday tushunchalardan biri bo‘lib, jamiyatda insonlarning malum bir tabaqa va sinflarga bo‘linish jarayonlari va uning kelgusidagi ijtimoiy oqibatlarini o‘rganish masalasi ijtimoiy fanlar, jumladan, falsafa, sotsiologiya fanlari oldida ko‘ndalang vazifa bo‘lib turibdi. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari tog‘risida”gi 5975-son farmoni, “Ijtimoiy sheriklik tog‘risida”gi qonunlarining qabul qilinishi ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlari va ijtimoiy hamkorlik masalalarini ilmiy asosda o‘rganish zaruratini ko‘rsatmoqda.[1] Shuningdek, G‘arb falsafasidagi ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasini tahlil qilish, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ushbu ijtimoiy–iqtisodiy voqelikni chuqur idrok etish hamda istiqbolni rejalashtirishning ilg‘or yo‘nalishlarining nazariy-kontseptual asoslarini yaratishga asos bo‘ladi..

Ijtimoiy tengsizlikni tushuntirish uchun G‘arb falsafasida ijtimoiy stratifikatsiya atamasi ishlatiladi. Ijtimoiy stratifikatsiya ijtimoiy qatlamni tartibga solishni va muayyan bir mezon (hokimiyat, boylik, kasbiy, sulolaviy va h.) ga ko‘ra tabaqalash, tasniflashni anglatadi.[2]

Jamiyat tarkibida sinflar, ijtimoiy guruhlarning bo‘lishi, turli xil tabaqalar tuzish, millat va toifalarga ajratish hamda shu orqali boshqarish tajribasi insoniyat tarixidan ma’lum. Qadim Turonda aholi urug‘-qabilaviy kelib chiqishi, kasbiy mansubligi, diniy e’tiqodiy qarashlari, sulolaviy kelib chiqishiga qarab tasnif etilgan. Bu esa har bir ijtimoiy guruhning ijtimoiy-siyosiy o‘rni va rolini obyektiv belgilashga, ulardan samarali foydalanishga va siyosiy boshqarishga imkon bergan.

Jamiyatning rivojlanishi bilan birga uni o‘rganish tamoyillari ham o‘zgarib boradi. Stratifikatsiya kishilar orasidagi ma’lum ijtimoiy tafovut iyerarxik ko‘ri-nishda bo‘lishini bildiradi. Ma’lumki, odamlar bir-biridan ko‘p jihatlari bilan farq qiladilar, lekin bu tafovutlarning hammasi ham jamiyat a’zolari o‘rtasida tengsizlikni keltirib chiqarmaydi. Tengsizlik eng umumiy ko‘rinishda moddiy va ma’naviy resurslardan bir xilda foydalana ololmaslikni ko‘rsatadi.[3]

Ijtimoiy stratifikatsiya masalasini tahlil qilishni ayrim olingan bir shaxsni boshqa kishilar davrasidagi o‘rnini o‘rganmasdan boshlash kerak. Har qanday odam jamiyatda ko‘plab mavqelarga ega bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida talabani olib ko‘ramiz: talaba, yosh yigit, o‘g‘il, sportchi. Bu mavqelarning har biri odamning o‘zi uchun qandaydir bir ahamiyatga ega.Atrofdagilar ham ularni aniq individga nisbatan turlicha baholashlari mumkin. Yaxshi sportchini ijtimoiy jihatdan atrofdagilar xuddi shu mavqeyiga ko‘ra baholaydilar. Uning talaba va kimningdir o‘g‘li ekanligi va boshqalar, atrofdagilar uchun ahamiyatli emas.

Stratifikatsiya nazariyasida doimo tenglik – tengsizlik muammosi mu-hokama etiladi. Tenglik tushunchasini quyidagicha tasnif etish mumkin:

- shaxslar tengligi;
- imkoniyatlar tengligi;

- yashash uchun sharoitlar tengligi;
- natijalar tengligi.

Shunga muvofiq ravishda tengsizlikni:

a)shaxslar tengsizligi;

b) imkoniyatlar tengsizligi;

v) yashash sharoitlari tengsizligi;

g) natijalar tengsizligi ko‘rinishida tasniflaymiz.

Amaliyotda sotsiologlar daromadlar va farovonlikning taqsimlanishiga, ta’limning davomiyligi va sifatidagi tafovutga, hokimiyat strukturasida siyosiy hayotda ishtirok etishga, mulk egasi bo‘lishiga katta e’tibor beradilar.[4]

Stratalarni va ijtimoiy hamkorlikni o‘rganishi xalqimiz tarkibidagi rang-baranglikni aniqlash imkonini beradi. Xalqimiz o‘z stratalarini himoya qilib kelgan. Bu himoya nafaqat qavmlar, shakllangan kasb va ijtimoiy guruhlar mavqeyini muhofaza etish tarzida, balki axloqiy yondashuvlar tizimini, turmush tarzi yaxlitligini, xalq urf-odat va an’analarini saqlash uchun kurash lavhalarida ham namoyon bo‘lib kelgan. Masalan, o‘zbek xalqi butun yaxlitligicha erkaklar va ayollar stratasiga bo‘linadi. O‘zbek ayollari o‘zbek erkaklaridan bir makon va bir zamonda istiqomat qilishlaridan qat’iy nazar, turmush tarzi, faoliyat yo‘nalishlari, estetik qarashlari va urf-odatlarga ko‘ra ma’lum darajada ajralib turadilarlar.

Jamiyatdagi ijtimoiy stratalar mohiyatini o‘rganish, pirovard natijada “turli qarash va fikrga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o‘ziga xos orzu-intilishlarini uyg‘unlashtiruvchi g‘oya — Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga” nazariy jihatdan ko‘mak beradi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish,davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish,mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida so‘nggi yillarda Respublikada ayollarni, yoshlarni ish bilan bandligini ta’minlash, ularning ishlashi ta’lim olishi uchun munosib sharoitlarini yaratib berish masalasiga, e’tibor kun sayin oshib bormoqda.

Bugungi kunda sotsial mobillik, ya’ni alohida shaxs yoki guruhlarning jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o‘rnini, mavqeini o‘zgartirishga qaratilgan harakatlar ham tezlashib va murakkablashib bormoqda. Sotsial mobillik o‘z navbatida ijtimoiy rivojlanish qonunlarining amal qilish bilan bog‘lanib ayrim shaxs va guruhlar ijtimoiy mavqeining quyi va yuqori tomonga qarab o‘zgarib borishini tezlashtirmoqda. O‘zbekistondagi demokratlashtirish islohotlari sotsial mobillik uchun imkoniyatni oshirmoqda. Demokratiyaga asoslangan mamlakatimizda jamiyatning tabaqalashtirilgan to‘siqlari olib tashlanib, ijtimoiy erkinlik uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Bizning fikrimizcha, stratifikatsion jarayonlar va ijtimoiy hamkorlikning ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni, uning mohiyatini belgilovchi omillarni aniqlash, taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muammolarning optimal yechimini topishga oid ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgan datlabki kunlardan boshlab, milliy g‘oya va mafkura, mustaqillik g‘oyalarini aholining keng qatlamlari ongiga singdirish, ta’lim, madaniyat, san’at, ma’naviy-ma’rifiy ishlar targ‘iboti masalalariga alohida e’tibor qaratish, yuksak ma’naviyatli barkamol shaxslarni tarbiyalashni davlat siyosati yo‘nalishlarining biri sifatida ahamiyat berib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyat sotsial strukturasini tahlil qilish va bu orqali yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy tarbiyasiga bo‘lgan ta’sirni o‘rganish ijtimoiy gumanitar fanlar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hayotining barcha epizodlarida inson boshqa odamlar bilan bog‘liq. Biror kishi boshqa shaxslar bilan hamkorlikda, qo‘shma tadbirlarda ishtirok etishi kerak. Boshqa odamlar bilan bir qator o‘zaro munosabatlardan so‘ng muayyan munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlar esa shaxs jamiyatning bir qismi ekanligini yaqqol ko‘rsatib turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lex.uz qonun hujjatlari elektron bazasi.
2. Falsafa izohli lug‘at. Toshkent 2008 yil 40 b.
3. Sotsiologiya darslik. M.Qirg‘izboyev Toshkent 2017 yil 160 b.
4. Jamiyat falsafasi. J. Tulenov Toshkent 2001 yil 24 b.